

O'zbek Tilshunosligida Son Kategoriyasining O'r ganilishining Zamonaviy Usullari Va Ularning Qo'Llanilishi

Niyozaliyeva Nigora Ravshanovna¹

Anatatsiya: Ushbu ilmiy maqola zamonaviy O'zbek tilida birlik va ko'plik, ya'ni son kategoriyasining o'r ganilish masalalariga, tahliliga bag'ishlanadi. Ona tilimizdagi ko'plik ma'nosi amaldagi grammatikaga doir ishlarda ot va fe'l turkumida grammatik kategoriya sifatida o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, grammatika, ta'lim, ko'plik kategoriyasi, zamonaviy metodlar.

Kirish Qism

Har bir davrda muayyan davlatning amalda mavjudligini, uning tarixini va dunyo taraqqiyotida, ilm-fanida muhimligini o'zining milliy, ona tili orqali namoyish qila olgan. Xususan, biz O'zbek xalqi uchun ham o'z ona tilimizni ma'naviy boyligimiz sifatida avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo'llanish imkoniyatlarini kengaytirish kabilar har doimgidan ham muhim vazifa bo'lib turibdi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi «nutq→lison» yo`nalishi asosidagi tadqiqotlar davrini muvaffaqiyatli bosib o'tib, o'zining yangi pog`onasiga – «lison→nutq» tamoyili asosida ish ko'rishga jadal o'tmoqda, til qurilishi va undagi hodisalar dunyo tilshunosligida keng tarqalgan maydon asosida o'r ganilmoqda. O'zbek tilidagi ko'plik ma'nosi amaldagi grammatikaga doir ishlarda ot va fe'l turkumida grammatik kategoriya sifatida o'r ganilgan. Biroq mavzuga doir mazkur ishlarning aksariyati sho`ro davrida yaratilganligi sabab ulardagi talqinlarda rus tiliga xos xususiyatlar ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Son kategoriyasining amaldagi talqinlari o'zbek tilining xususiyatiga to`liq mos kelmaydi. Shu sababli son kategoriyasini o'zbek tilining agglyutinativ tabiatidan kelib chiqib o'r ganish, uning tarixiy asoslarini bilish, tadrijiy taraqqiyotini belgilash, nutqiy voqelanishini tahlil etish hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi.

Adabiy Manbaalar Tahlili

O'zbek tili, umuman, uning tarixiy asosi bo'lgan turk tili grammatikasi haqida ko'plab ma'lumotlar tarixdan ko'plab olimlarning ilmiy asarlaridan saqlanib qolgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida turkiy tillarda ko'plikning ifodalanishida -lar muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatgan [1]. O'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi xususidagi fikrlar Abdurauf Fitratning «O'zbek tili qoidalari to`g`risuda bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf.» asarida ham uchraydi. Olim tub va yasama otlarni ko'plikda ifodalash uchun ularga -lar qo'shimchasi qo'shib aytish kerakligini ta'kidlaydi [2]. Ko'plikning ifodalanishi o'zbek tilshunosligida otning son kategoriyasi va fe'lning shaxs-son kategoriyasi nomi bilan maxsus o'r ganilgan. Bu kategoriyalar dastlab professor A.G`ulomov tomonidan tadqiq qilingan [3]. F.Safarov esa «O'zbek tilida son-midor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati» nomli tadqiqotida o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi masalasiga maydon sifatida yondashadi [4]. Grammatik, leksik, sintaktik, fonetik va g`ayrilisoniy vositalar birgalikda tahlil etiladi. Mazkur ishning asosiy maqsadi son-miqdor maydoni vositalarining tuzilishi, mazmuni, vazifasi va qo'llanishini tadqiq qilishga qaratilgan. Professor Sh. Rahmatullayev 2006-yilda nashr ettirgan «Hozirgi adabiy o'zbek tili» darsligida o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi bo'yicha ayrim fikrlarni aytib o'tgan. Bir guruh olimlar jamoasi (R.Sayfullayeva va boshqalar) tomonidan 2007-, 2009- va 2010-yillarda nashr etilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darslik va qo'llanmada ko'plik ma'nosi bo'yicha keng ma'lumot berilgan [5]. Ularning fikricha, otlarda ziddiyat holida bo'lgan birlik va ko'plik ma'nosi va bu ma'noni ifodalovchi shakllar sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi.

Ilmiy-Nazariy Tahlil.

Amalga oshirilgan ilmiy tahlillardan anglashiladiki, logik va grammatik ko'plikni farqlab, bu ma'noni ifodalovchi barcha vositani grammatik ko'plikka kiritish o'rinali emas. Grammatik ko'plik deganda nima nazarda tutilishi quyidagi jumlalardan oydinlashadi: «O'zbek tilida ko'plik ideyasining ifodalanishi quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. Morfologik ifodalananish.
2. Leksik ifodalananish.
3. Sintaktik ifodalananish.

Birinchi tur ot va fe'l to'dasidagi so'zlarda ishlatiladigan ayrim qo'shimchalardan iborat (bolalar, aytin, aytik, aytdilar...). Ikkinci tur jamlik bildiruvchi so'zlardan iborat (el, qo'shin, poda...). Bularning jamlovchi sanalishi

¹ Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 236-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

mazmunanginadir, ular ko`plikning grammatic ko`rsatkichiga ega emasdir. Uchinchi tur miqdor bildiruvchi so`zlarning ot bilan aloqaga kirishuvidan tuzilgan birikmalardir (dastadasta gul, baland-baland tog`lar).

Grammatic kategoriyalarni belgilashda grammatic shakllarning ma`no umumiyligi va ularning o`zaro zidlanishi aksar hollarda e'tiborga olinadi. Jumladan, ko`plikni bildiruvchi maxsus grammatic shaklning birlikni bildiruvchi nol shaklga zidlanishi, birlik-ko`plik shaklidagi grammatic oppozistiya son kategoriyasini tashkil etishi haqida fikr yuritiladi.

Grammatic miqdor ma'nosini ifodalovchi morfemaga sonlovchi deyiladi; bunday morfemalar tuzumiga sonlash morfemalari paradigmasi deyiladi. Sonlash morfemalari ot leksemaga bevosita qo`shiladi: "leksema + sonlovchi": olim + Ø- -olim+lar-, fasl + Ø- - fasl + larkabi. Mantiqiy miqdor bilan grammatic miqdor o`zaro farq qiladi. Mantiqan atoqli ot yakka predmetni ataydi: Sobir-, Chilonzor- kabi. Ayni shu ism bilan bir necha predmet atalishi mumkin, lekin shunda ham ism har gal yakka predmetni ataydi.

Otlarni yakka predmetni anglatishiga qarab birlik shaklida, ko`p predmetni anglatishiga qarab ko`plik shaklida deyish mumkin emas. *Sobir-*, *ko`chat* leksemalari yakka yoki ko`p predmetni bildirishidan qat'iy nazar – sonlash paradigmasining ayni bir shaklida – birlik shaklida. Shunday ot leksemalar ham borki, o`z semantik xususiyatiga ko`ra doim bittadan ortiq predmetni anglatadi:

xalq-, *qo`shin-* kabi; lekin bunday leksemalar sonlash paradigmasining birlik shaklida deyiladi. Xullas, ot leksemaning o`z semantik xususiyatiga ko`ra yakka yoki ko`p predmetni anglatishi – boshqa hodisa, sonlash paradigmasining birlik yoki ko`plik shaklida bo`lishi – boshqa hodisa.

Odatda *daraxt-* birlik shaklidagi, *daraxtlar-* ko`plik shaklidagi ot leksema deyiladi; bunda sonlash paradigmasi asosida yondashiladi. Mantiqan esa *daraxtlaremas*, *daraxt-* ko`p. Chunki *daraxt-* shakli yakka predmetni ham, shu turga mansub barcha predmetlarni ham bildiradi, bunda miqdor tushunchasi chegaralanmagan bo`ladi. *Daraxtlar-* shaklida *-lar* morfemasi miqdor tushunchasini chegaralaydi: daraxtning qandaydir to`dalari, xillari tushuniladi. Shu jihatdan yondashsak, turdosh ot leksemada predmetning ko`pligini leksemaning o`zi bildiradi, *-lar* morfemasi esa “chegaralanganlik” semasini unga zid qo`yib belgilanadigan morfema esa “chegaralanmaganlik” semasini ifodalaydi.

Haqiqatda, o`zbek tilida yakkani ifodalovchi maxsus morfema yo`q, turdosh ot leksema ma'lum kontekstdagina yakka predmetni bildirib keladi, alohida olinganda esa miqdor ma'nosini ifodalashi jihatidan noaniq bo`ladi. Asli bola kabi leksema “miqdor” ma'nosini ifodalashi jihatidan betaraf bo`lgan, “bitta” ma'nosi *-lar* morfemasining ‘bir necha’ ma'nosiga zidlanishda yuzaga kelgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ona tilimiz bo`lgan O`zbek tili grammatic va badiiy jihatdan har doim o`rganilib, tahlil qilinib, rivojlantirilib, sayqallanib kelingan. Xususan, undagi ko`plab grammatic kategoriyalardan biri bo`lgan son kategoriyasi ham ko`plab tilshunos olimlar tomonidan o`rganilib, asoslab berilgan. Qolaversa, zamonaviy o`zbek tilshunoslari ham ushbu sohada izlanishlari tufayli ushbu kategoriyaning yangi qirralarini kashf qilishda davom etmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. Кошғарий М. Девону луготит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталибов). Т. I-II-III. –Т.: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –529 б.; Т. II. 1961. – 488 б.; Т. III. 1963. – 468 б.
2. Фитрат. Ўзбек тили қоидалари тўғрисуда бир тажриба. Биринчи китоб: Сарф. Танланган асарлар. V жилдлик. - Тошкент: Маънавият, 2006. –IV жилд. –Б. 140-175.
3. Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент: Ўздавнашр. 1944. -56 бет
4. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-мидор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фан. номз. дисс. - Самарқанд, 2004. -134 б
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek tili / Darslik –Toshkent: Universitet, 2007; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili / O`quv qo`llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2009; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili / Darslik. – Toshkent: Universitet, 2010. -335 б.